



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG'-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

«REGIONALGEOLOGIYA» DAVLAT UNITAR KORXONASINING
BUYRUG'I

2023 yil «09» 02

44 - son

Toshkent viloyati

**“Regionalgeologiya” DUKda davlat xaridlarini amalga oshirishning
raqobatli usullarini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O‘RQ-684-son “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash” to‘g‘risidagi 276-sun qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usullarini amaliyotga joriy etish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 maydagi 276-sun qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur buyruq bilan quyidagilar tasdiqlansin:

- Davlat korxonasining xarid komissiyasi tarkibi, texnik topshiriqlarni rasmiylashtirish komissiyasi va texnik xulosa berish komissiyasi 1-ilovaga muvofiq;
- Davlat korxonasida davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi va bosqichlari 2-ilovaga muvofiq;
- Davlat xaridlari bo‘yicha shartnomalarni rasmiylashtirish va tasdiqlash tartibi 3-ilovaga muvofiq;
- Davlat xaridlari bo‘yicha marketing tahlil qilish tartibi 4-ilovaga muvofiq;
- Eng yaxshi takliflarni tanlash vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish sxemasi 5-ilovaga muvofiq;
- Tovar moddiy boyliklarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi shakli 6-ilovaga muvofiq;
- Tovar moddiy boyliklarni markaziy ombordan olish uchun buyurtma varag‘i shakli va birja orqali tovar moddiy boyliklar yoki xizmatlarni xarid qilish uchun buyurtma varag‘i shakli 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtiroychilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g‘olibni (g‘oliblarni) tanlashdan iborat ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Xarid komissiyasiga quyidagi vazifalar yuklatilsin:

- xarid qilish hujjatlarini kelishish;
- takliflar qabul qilish muddatlarini belgilash;
- takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilash;
- takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilash;
- zarur bo‘lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta’minlash shaklini belgilash;
- xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshirish;
- dastlabki malaka tanlovini o’tkazish, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo‘lsa;
- zarur bo‘lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qilish;
- zarur bo‘lganda baholash guruhini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- xarid qilish tartib-taomillarini amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirish;
- xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g‘olibini va zarur bo‘lganda zaxiradagi g‘olibni belgilash yoki savdoni amalga oshmagan deb topish.

5. Quyidagilar mas’ul kotibning asosiy vazifalari etib belgilansin:

- ishtirokchilarining takliflarini tanlash, tender va hadli kelishuv bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo‘yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko‘rib chiqish uchun taqdim qiladi;
- tasdiqlangan mezonlar bo‘yicha ishtirokchilarining takliflarini baholash natijalarini davlat xaridlarining elektron tizimida joylashtiradi;
- davlat xaridlarining elektron tizimida biriktirilgan fayllardagi ma’lumotlarning ishtirokchining tanlash taklifida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga muvofiqligini tekshiradi;
- tanlash, tender va hadli kelishuv taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilganligi yoki rasmiylashtirilmaganligi bo‘yicha qaror qabul qiladi va xarid komissiyasiga tasdiqlash uchun taqdim qiladi;
- tasdiqlangan xarid hujjatlarini, shartnomaga loyihasini, shuningdek, eng yaxshi takliflarni elektron tanlov yoki tender o’tkazish to‘g‘risidagi e’lonni o‘z vaqtida portalga joylashtiradi.

6. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komleans nazorat bo‘limi boshlig‘i davlat korxonasida davlat xaridlarini amalga oshirilishida korrupsiyaga yo’l qo’yilmasligini ta’minlash maqsadida:

- insofli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog‘ida xolisona mezonlardan foydalanimishini;
- monitoring va nazorat o’tkazishning, shu jumladan ichki monitoring va nazorat o’tkazishning samarali tizimi yaratilishini;
- ushbu Qonun va davlat xaridlarini sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi hollari to‘g‘risidagi ma’lumotlar axborotning ochiq manbalarida e’lon qilib borilishini;
- davlat xaridlarini tartib-taomillari amaldagi qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq amalga oshirilishini nazorat qilsin.

7. Xarid komissiyasi a’zolari va mas’ul kotib eng yaxshi takliflarni, tender tanlovi yoki hadli kelishuv bo‘yicha ishtirokchilar hujjatlari va takliflarini ko‘rib chiqishda xolis bo‘lishi va xarid qilish tartib-taomili g‘olibini tanlashdan shaxsan manfaatdor bo‘lmasligi kerakligi, shuningdek qabul qilingan qarorlar bo‘yicha va maxfiy tusdagisi har qanday ma’lumotni oshkor qilmaslik uchun shaxsan javobgar ekanligi inobatga olinsin.

8. Ekspeditsiya va laboratoriya boshliqlari:

- joylarda ishlab chiqarish faoliyatini buyurtma berilgan tovar moddiy boyliklar rejaga muvofiq yetkazilishini hisobga olgan holda tashkil etsinlar;
- burg’ulash uskunalari va qurilmalariga joriy va kapital ta’mirlash rejalariga muvofiq texnik xizmat ko’rsatish uchun ehtiyyot qismlarga buyurtmalar hamda rejadan tashqari buyurtmalarni berishda mazkur buyurtmalar xarid komissiyasi tomonidan ko‘rib

chiqilishi, tanlov, sotib olish va yetkazib berishga sarflanadigan vaqtni inobatga olgan holda bersinlar.

9. Mazkur buyruq qabul qilinganligi munosabati bilan davlat korxonasining 2022 yil 9 fevraldagি 40-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Ijro intizomi bo'yicha yetakchi mutaxassis (A.Amirov) mazkur buyruqni tegishli tarkibiy bo'linma, hududiy ekspertizalar va laboratoriyaga yetkazilishini ta'minlasin.

11. Mazkur buyruq ijrosi ustidan nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



N. Haitov

2023 yil "09" 02 dagi
№44-son buyruqqa
1-ilova

**“Regionalgeologiya” davlat unitar korxonasining xarid komissiyasi
TARKIBI**

№ To'liq ismi sharif

1 Alimov S.M.

2 Aripov Sh.F.

3 Muratov N.J.

4 Nazarov B.B.

5 Islomov A. Sh.

6 Ne'matov M.I.

7 Saxatov M.A.

Lavozim

Komissiya raisi

Direktor o'rincbosari

Komissiya raisining o'rincbosari

Bosh geolog

Komissiya a'zolari

Bosh muhandis

Rejalashtirish va moliya bo'limi boshlig'i

Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompleans nazorat bo'limi boshlig'i

Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini tashkil etuvchi kotiblar

MTTB rahbari

MTTB yetakchi mutaxassisi

* Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tganda uning tarkibiga lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

**Masul kotiblar ovoz berish huquqiga ega emas.